

**RESPUBLIKA O‘RTA TA‘LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH
TIZIMLARINI LOYIHALASHTIRISH VA TADBIQ ETISH MUAMMOLARI**

Mahmudova Ozodaxon Abdubannob qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Farg‘ona filiali 2-bosqish magistranti.*

ozodamahmudova99@gmail.com

Abdirasul Xolmurzayev, t.f.n,

Farg‘ona politexnika instituti, abdirasul60@gmail.com

Annotatsiya: Respublika o‘rta ta‘lim tizimida qo‘llash mumkin bo‘lgan xalqaro baholash tizimlari, ularni loyihalashtirish va tadbiq etish masalalari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: *loyihalashtirish, ta‘lim, baholash, maktab, metod.*

Аннотация: *Рассматриваются международные системы оценивания, которые могут быть использованы в системе среднего образования республики, а также вопросы их проектирования и внедрения.*

Ключевые слова: *проектирование, образование, оценивание, школа, метод*

Annotation: *This article discusses international assessment systems that can be used in the system of secondary education of the republic, as well as issues of their design and implementation.*

Keywords: *design, education, assessment, school, method*

Globalashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsion davrda jahondagi ta‘lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta‘lim orqali esa jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. Dunyoda ta‘lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O‘quvchilarning ta‘limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Mak- tabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta‘lim sifatini yanada oshirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo‘yilgan. Xalq ta‘limi tizimining strategik maqsadlari belgilab qo‘yilgan va

ular quyidagilar: ya’ni umumta’lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg’or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish; inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o’quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish belgilangan.

PISA xalqaro baholash tadqiqotining O‘zbekistonda tashkil etilishi va unga mas’ul vazirlik hamda idoralar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot Tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi to‘g‘risida”gi Qarori bilan belgilab qo‘yilgan. Mazkur hujjatga asosan Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta’limi, Tashqi ishlar, Adliya, Innovatsion rivojlanish, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklarining O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish to‘g‘risidagi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida ta’lim sifatini baholash bo‘yicha «Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy Markazi» tashkil etish bo‘yicha berilgan takliflariga rozilik berilgan.

PISA xalqaro o‘quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining asosiy maqsadi rasman quyidagicha belgilangan: 15 yoshli o‘quvchilarning ilm-fan jamiyati talablariga javob berishi qanday holatda? Baholash tadqiqotining bosh maqsadi esa, o‘quvchilarning maktabda o‘rganayotgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishi qanday holatda ekanligini aniqlashdan iborat.

PISA baholash tadqiqoti IHTTning bir qancha loyihalaridan biri bo‘lib, xalqaro doirada ta’lim natijalarini erishilgan bilim va ko‘nikmalar, ya’ni kompetensiyalar bilan taqqoslashga qaratilgan. PISA baholash tadqiqoti mazmunan real kundalik holatlarga qaratilgan bo‘lib, maktabda erishilgan bilimga kamroq e’tibor qaratilgan. PISA baholash tadqiqoti birinchi navbatda majburiy ta’limning yakuniga qadar erishilgan umumiy ko‘nikma, bilim va yondashuvlarni va ularning maktablardagi o‘quv rejasidagi bilim va tushunchalarga bog‘liqligini tekshiradi. Xalqaro ekspertlar guruhi tadqiqotning umumiy konsepsiyasini yaratishadi va mazkur konsepsiya asosiy tayanch kompetensiyalarni o‘lchash imkonini beradi.

PISA tadqiqoti qatnashuvchi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘zgarishlar uchun turtki, keng jamoatchilik va ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlarining bosh mavzusi bo‘libgina qolmay, o‘z navbatida ko‘plab tanqidlarning ham markaziy mavzusiga aylangan. Alohida ta’kidlash joizki, tadqiqotning maqsadi hamda qo‘llanilgan uslublar va tadqiqot natijalarining interpretatsiyasi keng muhokama qilinib kelinmoqda. Pirovardida tadqiqot qariyb 20 yildan buyon takomillashib

kelmoqda. Buning natijasida esa ko‘plab davlatlar mazkur tadqiqotda ishtirok etish fikrini bildirmoqda.

PISA tadqiqotining boshqa tashabbuslari. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan ta’limga oid bir qancha tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, PISA for Development” PISA– rivojlanish uchun), PISA – based Test for Schools” (Maktablar uchun PISA ga asoslangan testlar), PISA Online Programme for School Improvement” (Maktablardagi holatni aniqlashtiruvchi PISA Onlayn dasturi) shular jumlasidandir.

PISA for Development (PISA– rivojlanish uchun) tashabbusining maqsadi rivojlanayotgan davlatlarning PISA tadqiqotiga qatnashishiga yordam berish va tayyorlab borishni maqsad qilgan. Mazkur tashabbus Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Ta’lim sohasida barqaror rivojlanish» dasturi asosida amalga oshirilmoqda.

PISA – based Test for Schools (Maktablar uchun PISAga asoslangan testlar) maktab bosqichida taqqoslash imkoniyatini beradi va savolnomalar yordamida o‘quvchilarning o‘quv muhiti haqida ma’lumotlar yig‘ishni maqsad qiladi.

PISA Online Programme for School Improvement (Maktablardagi holatni aniqlashtiruvchi PISA Onlayn dasturi) tashabbusining maqsadi PISA tadqiqotining natijalarini maktablarga joriy etishga xizmat qiladi. Mazkur dasturning dunyo bo‘ylab barcha ishtirokchilari o‘quvchilarning yaxshi bilim olishi, o‘qituvchilarning yuqori sifatli mashg‘ulot o‘tkazishi va o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha onlayn platformada hamkorlikda ishlashadi.

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta’lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O‘zbekistonning ham birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan “Stesting” loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor video yaratildi va “Stesting” platformasi ishga tushirildi. Bu platforma o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o‘z ichiga olgan. Unga 1500 tadan ortiq test joylashtirilgan.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish, testlarni yechish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan mazkur elektron platforma sentyabr-oktyabr oylarida muayyan maktablarda tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Eng muhim jihatlardan biri ushbu

platformadan foydalanish mutlaqo bepul. Bugunga qadar ushbu platformada 2,6 milliondan ortiq o‘quvchi ro‘yxatdan o‘tgan va ularning diagnostik baholash natijalari tahlil qilingan.

Ta’lim sifatiga xalqaro doiradagi ekspertlarning bahosi juda muhim. Sababi, hech qaysi mamlakat o‘z ta’lim tizimiga xolis baho bera olmaydi. PISA tadqiqotlari esa dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida standartlashtirilgan testlar orqali o‘tkaziladi. Ta’lim rivojlangan mamlakatlardagi 14 yoshdagi bolalarning bilim darajasini bir xil mezonda o‘lchash imkonini beradi. PISA tadqiqotlarida O‘zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta’lim sifati nechog‘lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko‘rsatadi. Bu nima uchun muhim? Avvalo, ta’limdagi o‘zgarishlarda to‘g‘ri yo‘ldan ketyapmizmi, degan savolga javob topiladi. PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan bo‘lmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya ham bo‘lishi mumkin. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog‘lik tayyorligini baholaydigan sinov.

Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;
- ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;
- ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;
- ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;
- ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
- xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok

etish;

- o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Muammolar

1. Tajriba yetishmasligi.

Shu davrga qadar O‘zbekiston xalqaro o‘quvchilar bilimni baholash dasturlariga qatnashmagan.

2. Infraztuzilma.

Xalqaro miqiyosdagi dasturlar belgilangan talab darsjarida o‘tkazish uchun qulay infratuzilma mavjud emas.

3. Mutaxassislar.

Metodist, tarjimon va boshqa malakali mutaxassislarni tanqisligi.

4. O‘quv-uslubiy ta‘minot

Pisa bo‘yicha o‘quv-metodik majmualar, metodik qo‘llanma, ishlanma va ko‘rsatmalar mavjud emas.

5. Manfaaddorlar.

Ta‘lim tizimi manfaatdorlari (ota-ona, o‘quvchi, o‘qituvchi va boshqalar) xalqaro dasturlar bo‘yicha yetarli ma‘lumotga ega emas.

6. Pisa va Milliy ta‘lim tizimi.

Xalqaro baholash dasturining, xususan, Pisa dasturining yondashuvi milliy ta‘lim tizimidan tubdan farq qiladi.

Kutilayotgan natija.

1. PISA bo‘yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik yalpi ichki mahsulot (YalM) ning 1% ga oshishini ta‘minlaydi.

2. Rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishi uchun malakali. zamonaviy fikrlaydigan, yuqori salohiyatli kadrlar shakllanadi.

3. Ta‘lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali mamlakatdagi o‘quvchilarning bilimi jahon standartlariga tenglashtirilgan.

4. Xalqaro tadqiqotlar asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratiladi

5. Xalqaro tadqiqotlar yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va

o‘quv dasturlariga integratsiya qilish.

Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash, xalqaro baholash tadqiqot dasturlariga tayyorgarlik, erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, xalqaro baholash dasturi natijalari asosida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholash milliy tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda maktab o‘quvchilarining kelajakdagi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini oshirishga doir takliflar tayyorlash ko‘zda tutilgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘quvchilarga bilim va ko‘nikmadan tashqari kompetensiyalar zarurligi xalqaro tajribada o‘z ifodasini topgan. Maktab ta’lim tizimida o‘rganilgan bilimlarni o‘quvchilarning o‘z shaxsiy, kasbiy va jamiyat hayotida qo‘llay olishi PISA baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. PISA baholash tadqiqoti mazkur tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlar hukumatlari, ta’lim tizimiga mas’ul vazirliklar, idoralar va ta’lim tadqiqotchilari uchun ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun chora-tadbirlarni belgilashda ahamiyati kattadir.

Maktab ta’limi ham jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jabhalar bilan yonma-yon isloh qilinadi va rivojlanadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ham rivojlangan davlatlarning yutuqlarini va tajribalarini o‘rgangan holda O‘zbekiston sharoitini hisobga olgan holda islohotlar amalga oshirishdan iboratdir. Inson resurslarining jamiyatdagi o‘rni beqiyos bo‘lib, ta’lim tizimi oldiga muhim topshiriqlarni o‘z oldiga qo‘yadi.

O‘quvchilarning aql-zakovati, tafakkuri, ongi, irodasi, ijtimoiy faolligi, uning ma’naviyati, qarashlari, axloqiy-estetik bilimlari, ichki ruhiy kechinmalari, global jarayonlarda nuqtai nazarga ega bo‘lishi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi va mustaqil hayotga tayyorgarligi maktab ta’limi tizimi oldiga yangidan-yangi topshiriqlarni qo‘ymoqda. O‘quvchilarga bilim va ko‘nikmadan tashqari kompetensiyalar zarurligi xalqaro tajribada o‘z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мохигул А., Мохинур А. ПОНЯТИЕ BIG DATA И ЕГО ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
2. Abdullayeva M. IN THE INFORMATION AGE, IDEA IS OPPOSED TO IDEA, THOUGHT IS OPPOSED TO THOUGHT//ALL SCIENCES. -2022 –Т. 1.- №. 6.
3. Abdullayeva M. ZAMONAVIY BIGDATA TIZIMIDA INTERAKTIV HIZMATLARNI TAQDIM ETISH TADQIQOTI VA KORXONA,

TASHKILOTLARNI BOSHQARISHDA QO'LLASH//Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali. -2022 –T.

4. Abdullayeva M. "BIG DATA" ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ //Ахборот-коммуникация технологиялари ва телекоммуникациялари соҳасида замонавий муаммолар ва ечимлар. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

5. Abdullayeva M. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA MOBIL ALOQA VOSITALARINI QO'LLASH//“Zamonaviy Axborot, Kommunikatsiya Texnologiyalari va AT-ta;lim tatbiqi muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

6. Хамидов, Э. Х. (2020). Глубокое обучение: понятие и применение. *Молодой ученый*, (37), 8-11.

7. Собиров, М. М., Хамидов, Э. Х., & Ходжиматов, Ж. М. (2022). ВИРТУАЛЬНЫЕ ЭЛЕКТРОСТАНЦИИ—БУДУЩЕЕ ЭНЕРГЕТИКИ. *Journal of new century innovations*, 11(1), 117-126.

8. Ходжиматов, Ж. М., Хамидов, Э. Х., & Собиров, М. М. (2022). ОСНОВНЫЕ СОВРЕМЕННЫЕ ЯЗЫКИ ПРОГРАММИРОВАНИЯ. *Journal of new century innovations*, 11(1), 136-143.

9. Хамидов, Э. Х., Собиров, М. М., & Ходжиматов, М. М. (2022). НЕЙРОННЫЕ СЕТИ RNN И LSTM. *Journal of new century innovations*, 11(1), 127-135.

10. Ходжиматов, Ж. М. (2021). Параллельное программирование в Java. *Молодой ученый*, (22), 30-34.

11. Khamidovich, X. E., & Murodovich, X. J. (2022). Parallel Programming in Java for Mobile App Development. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(3), 69-74.

12. Ходжиматов, Ж. М., Хамидов, Э. Х., & Собиров, М. М. (2022). ОСНОВНЫЕ СОВРЕМЕННЫЕ ЯЗЫКИ ПРОГРАММИРОВАНИЯ. *Journal of new century innovations*, 11(1), 136-143.

13. Собиров, М. М., Хамидов, Э. Х., & Ходжиматов, Ж. М. (2022). ВИРТУАЛЬНЫЕ ЭЛЕКТРОСТАНЦИИ—БУДУЩЕЕ ЭНЕРГЕТИКИ. *Journal of new century innovations*, 11(1), 117-126.